

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XOLBOYEVA GULNORA ULASHOVNA

**TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA
KOMPLEKS TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xolboyeva Gulnora Ulashovna

Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....3

Xolboeva Gulnora Ulashovna

Совершенствование методики комплексной подготовки детей подготовительных групп к обучению в школе.....23

Holbayeva Gulnara Ulashovna

Improving the methods of comprehensive preparation of children of preparatory groups for schooling.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works50

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XOLBOYEVA GULNORA ULASHOVNA

**TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA
KOMPLEKS TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.Phd/Ped2660 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mdmoi.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirsoliyeva Muxabbat To'xtasinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Abduraximova Dilfuza Aliyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Teshabaeva Zamira Sobirovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «7» yanvar soat 14.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871)150-01-27; faks:(99871)150-01-27; e-mail: info@mdmoi.uz)

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; e-mail: info@mdmoi.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2024-yil "_____" dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).




N.X. Raxmankulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor


Sh.E. Ne'matov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent


K.Dj. Riskulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi globalashuv jarayonlari ta'lim tizimida jadal o'zgarishlar kiritishni taqozo etib, mazkur sohaning asosiy strategiyasini belgilovchi omil ta'lim sifati va unda raqobat ustunligini ta'minlashning zaruriy indikatorlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada BMT tomonidan 2030 yilgacha belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlarida "bolalarni maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash imkoniyatini yaratish"¹ dolzarb vazifa etib belgilangan. Xalqaro tajribalarda maktabgacha ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ta'lim sifati oshirish hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirishning innovatsion pedagogik konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim mazmunini zamonaviy tendentsiyalari asosida takomillashtirib borish, bolalarda boshlang'ich ta'limiy kompetentsiyalarni shakllantirishning integrativ metodikalarini amaliyotga joriy etishga muhim ustuvorlik qaratilmoqda.

Dunyoda bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligining sifat indikatorlarini belgilash, inklyuziv yondashuvni rivojlantirish, ularda moslashuvchan ijtimoiy ko'nikmalarni, kreativlikni shakllantirish, STEAM metodologiyasi orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning innovatsion metodikalarini joriy etish, xalqaro standartlar asosida o'quv-metodik materiallar mazmuni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasini raqamli transformatsiyalash sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonlari sifatini baholash, shu bilan birga, maktab ta'limiga kompleks tayyorgarlikni shakllantirishning innovatsion ta'limiy muhitni loyihalash modellarini takomillashtirish, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan yangi metodikalarni joriy etish orqali bolalarni boshlang'ich ta'limga kompleks tayyorgarligini rivojlantirish yanada dolzarblik kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish bilan

¹ Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 6.

bog'liq ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bu o'z navbatida, barcha bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorgarligini shakllantirish uchun bir xil imkoniyatlarni ta'minlovchi samarali innovatsion metodik tizimini shakllantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari qarori hamda mavzuga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha respublikamiz pedagog-psixolog olimlaridan F.Qodirova, Sh.Shodmonova, N.Djamilova, T.Xurvaliyeva, D.Babaeva, D.Abduraximova, L.Mirjalolova, X.Najmiddinova, N.Abdullaeva, G.Berdaliev, O.Maxmudova, Sh.Hasanova, M.Isxaqova va boshqalarning ishlarida batafsil yoritilgan.

MDH va xorijlik olimlaridan A.Mixaylova, Ye.Tixeeva, F.Blexer, Ye.Nosova, M.Polyakova, A.Stolyar, A.Beloshistaya, J.Almon, A.Barody, J.Sarama, G.Duncan, C.Japel, P.Klebanov, E.Miller, L.Pagani, J.Lee, T.Xavashi, K.Kavano, M.Montessori, O.Dekroli, P.Kergomar, J.Piaje, S.Bendjamin, St. Hall, V. Hartmann, K. Lange, V. Seyffert va boshqalar tomonidan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ijtimoiy, pedagogik-psixologik mazmuni, shuningdek, maktabga tayyorlashda oilaning o'rni va ta'sir doirasi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni tashkil etishning metodik asoslari bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni, xususan, maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirishning samarali innovatsion metodik tizimini shakllantirish maxsus tadqiq etilmagan. Shuning uchun, innovatsion yondashuvlar asosida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan maxsus ilmiy tadqiqotni amalga oshirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat pedagogika institutining "2023-2026 yillarda innovatsion rivojlantirish va ta'lim sifatini ta'minlash dasturi" ga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik-psixologik talablarini nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilish;

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash modelini ishlab chiqish;

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida 257 nafar respondent ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, qiyosiy va retrospektiv tahlil, so'rovnoma, test, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, sotsiometrik metodlar (anketa, suhbat), matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlashning xavfsiz qulay muhit, o'quv dasturlarining variativligi, ijtimoiy, ijtimoiy-hissiy tayyorlik, muloqotning yangi shakllari kabi psixologik-pedagogik talablari maktabgacha yosh davridagi rivojlanish sohalari va kompetensiyalar tizimining natijaviylik darajasi produktivligini qat'iy belgilash orqali aniqlashtirilgan;

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlashning tuzilmali modeli individual-differensial, ekotizim-uzviylik, kompetensiyaviy yondashuvlarga muvofiq sezitiv yosh davrigi xos bilishga qiziqishni faol rag'batlaydigan kongruentlik va assertivlik mexanizmining ijtimoiy moslashuv bilan parametral vektorini qat'iy belgilash asosida takomillashtirilgan;

maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy va didaktik shart-sharoitlari intellektual tayyorgarlikning makro, mezo, mikro darajalariga muvofiq individual rivojlanish traektoriyasi produktogenligiga erishishni kafolatlashga xizmat qiladigan pedagogik jarayonni maqsadli loyihalash asosida takomillashtirilgan;

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasi inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishga qaratilgan universal dizayn

strategiyasining hamkorlikdagi o‘zaro birgalikdagi faoliyatning barcha bosqichlarini ko‘zda tutadigan rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari bilan axborotlarni kodlash va dekodlash mantiqi bo‘yicha o‘zaro shartlanganligini bevosita hisobga olish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan;

“Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga umumiy tayyorgarligi” nomli metodik qo‘llanma yaratilgan;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirishning metodik ta’minoti takomillashtirilgan;

tayyorlov guruhi bolalarning maktab ta’limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llangan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga kompleks tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy va didaktik shart-sharoitlari, psixologik-pedagogik talablari, shuningdek, tizimli yondashuv asosida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish modelining ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga kompleks tayyorlashning takomillashtirilgan metodikasidan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida Maktabgacha ta’lim pedagogikasi, Maktabgacha ta’limda pedagogik diagnostika modullari mazmunini boyitishda, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar va mutaxassislari malakasini oshirish kurslari dasturlarini takomillashtirishda, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga kompleks tayyorlashning xavfsiz qulay muhit, o‘quv dasturlarining variativligi, ijtimoiy ijtimoiy-hissiy tayyorlik, muloqotning yangi shakllari kabi psixologik-pedagogik talablarini maktabgacha yosh davridagi rivojlanish sohalari va kompetensiyalar tizimining natijaviylik darajasi produktivligini qat’iy belgilash orqali aniqlash bo‘yicha takliflardan maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan Davlat talablari, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Maktabgacha ta’lim agentligining 2023 yil 22 iyundagi

№-03-271 ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish jarayonlarining o'quv-me'yoriy, uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan.

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlashning tuzilmali modelini individual-differensial, ekotizim-uzviylik, kompetensiyaviy yondashuvlarga muvofiq senzitiv yosh davrigi xos bilishga qiziqishni faol rag'batlaydigan kongruentlik va assertivlik mexanizmining ijtimoiy moslashuv bilan parametral vektorini qat'iy belgilash asosida takomillashtirishga oid takliflardan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Maktabgacha ta'lim agentligining 2023 yil 22 iyundagi №-03-271 ma'lumotnomasi). Natijada maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirishning tuzilmaviy modeli innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirilgan.

maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy va didaktik shart-sharoitlarini intellektual tayyorgarlikning makro, mezo, mikro darajalariga muvofiq individual rivojlanish traektoriyasi produktogenligiga erishishni kafolatlashga xizmat qiladigan pedagogik jarayonni maqsadli loyihalash asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar "Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagi 314-sonli buyrug'i asosida berilgan 421-6691 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlashga xizmat qiluvchi o'quv-metodik ta'minoti takomillashtirilgan.

tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishga qaratilgan universal dizayn strategiyasining hamkorlikdagi o'zaro birgalikdagi faoliyatning barcha bosqichlarini ko'zda tutadigan rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari bilan axborotlarni kodlash va dekodlash mantiqi bo'yicha o'zaro shartlanganligini bevosita hisobga olish orqali takomillashtirishga xizmat qiluvchi mualliflik-interaktiv metodik ta'minoti ishlab chiqilgan. (Maktabgacha ta'lim agentligining 2023 yil 22 iyundagi №-03-271 ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruhlari ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'quv-metodik ta'minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish, jumladan bitta o'quv qo'llanma va bitta metodik qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola shundan: 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligi muammosining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash nazariyasi, mazmuni, bolalarni maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, talablari hamda tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirishning amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

Maktabgacha ta'lim - bolalarni maktabga tayyorlash vositasi sifatidagina emas, aksincha yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida shakllantirishning muhim bosqichi sanaladi.

Bizning fikrimizcha, “maktabga tayyorgarlik” – belgilangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi hisoblanib, bolaning akademik tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan me'yoriy talablar doirasidagi psixik, jismoniy, intellektual, nutq va muloqot ko'nikmalarining shakllanganligi bilan bog'liq kompleks tayyorgarlik holati, shuningdek maktab o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun zarur bo'ladigan tayyorgarlikning muayyan darajasidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti”da maktabga tayyorgarlik - bolada umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohasi kompetensiyalarining shakllanganligi tushuniladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bu 5-7 yosh oralig'idagi bolalar bo'lib, ularning jismoniy-fiziologik, psixologik, intellektual-ijtimoiy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Xususan, katta maktabgacha yoshda bola tanasining barcha fiziologik tizimlari: asab, yurak-qon tomir, endokrin, mushak-skelet tizimining jadal rivojlanishi va qayta tuzilishi kuzatiladi. Bolaning bo'yi va vazni tezda oshadi, tana nisbatlari o'zgaradi. Yuqori nerv faoliyatida sezilarli o'zgarishlar mavjud bo'ladi. Uning xususiyatlariga ko'ra, olti yoshli bolaning miyasi kattalar miyasiga ko'proq o'xshaydi. Bu davrda bolaning tanasi tizimli maktab ta'limi bilan bog'liq ko'proq kuchli aqliy va jismoniy stressni o'z ichiga olgan yosh rivojlanishining yuqori bosqichiga o'tishga tayyorligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalik davrida o'zlashtirilgan turli xil maxsus ko'nikmalar (badiiy, tasviriy, nutq, musiqa va boshqalar faoliyati) bolaning ijodiy g'oyalarini mustaqil ravishda amalga oshirishi, voqelikni obrazli aks ettirish, his-tuyg'ularini va ijodiy tashabbusni rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

ijrochilikdan, reproduktiv mustaqillikdan, tashabbuskorlik va ijodkorlik elementlari bilan mustaqillikka erishish bolaning maktabga tayyorligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligi turli aspektlarda baholanadi: jismoniy tayyorgarlik darajasi; bilish-kognitiv sifatlarning rivojlanganligi, intellektual tayyorgarlik darajasi; psixologik rivojlanish va shu kabilardir.

Ilmiy-pedagogik tahlillarni umumlashtirish asosida, tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga tayyorgarligining asosiy komponentlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin bo'ladi:

- jismoniy-fiziologik;
- kognitiv (bilish), intellektual;
- kommunikativ;
- hissiy- ijtimoiy (ijtimoiy moslashuv, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini nazorat qilish);
- akademik tayyorgarlik (o'quv faoliyatiga tayyorgarlik).

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlilidan xulosa qilishimiz mumkinki, tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash mazmuni avvalo ularning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari hamda ta'lim oluvchilarning kompetensiyaviy yondashuv asosida bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanganlik darajasini tashxis qilish bilan kechuvchi tizimli jarayon hisoblanadi. Fikrimizcha, tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash murakkab va tizimli jarayon sanalib, uning samaradorligi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayon samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda baholanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi bolani ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini ta'minlash, uni o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish hamda muayyan sohalar bo'yicha tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan, "maktabga tayyorgarlik" muayyan yosh davrining o'ziga xos rivojlanish darajasi hamda ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda, rivojlanish sohaları (jismoniy-fiziologik, psixologik, hissiy, intellektual, shaxsiy, kommunikativ) va kompetensiyalar tizimining o'zaro aloqadorligi va chambarchas bog'liqligini ifodalaydigan jarayondir. Shu nuqtai-nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirish va baholash mazmuni va komponentlarini aniqlashtirish asosida diagnostik tizimini takomillashtirish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimiz doirasida tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlashning quyidagi pedagogik-psixologik talablari aniqlashtirildi:

Pedagogik talablar: maktabgacha ta'limning ochiqqligi; ta'lim jarayonida bola hayoti va salomatligini muhofaza qilishning ustuvorligi; maktabgacha ta'limning insonparvarligi va demokratligi; muqobil ta'lim dasturlarining mavjudligi; ta'lim dasturlarining variativligi; maktabgacha ta'lim tizimining bolalar tayyorgarligi va intellektual darajasini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

Psixologik talablar: ta'lim mazmuni va jarayonini yosh-individual, psixokognitiv xususiyatlarga yo'nalganligi, ijtimoiy-hissiy tayyorgarlik, bolalarda yangi

munosabatlarga, yangi muloqot shakllariga tayyorgarlikni, ta'limiy-ahamiyatli sifatlarni (motivatsion soha, tafakkur tarzi, idrok) shakllantirish, o'z "Men"ini anglash, kommunikativlik, qobiliyatlarini erkin namoyon etishi.

Shuningdek, tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash bilan bog'liq xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy o'rganildi. Jumladan, Finlandiya tajribasida bolalar maktab ta'limiga tayyorgarligi guruhda ishlash, pedagogning ko'rsatmasini eshitish va javob berish, ijtimoiy muloqot, ijtimoiy-hissiy tayyorlik kabi uning umumiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Bunda maktabga tayyorgarlik uchun aniq talablar va me'yorlar mavjud emas, aksincha maktabgacha ta'lim sifatiga qo'yiladigan standart talablar ta'lim sifati va yaratilgan shart-sharoitlarga nisbatan belgilanadi. Amerika va Angliyada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning alohida dastur va strategiyalari mavjud emas, ya'ni bolalar erkin va to'laqonli faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin. Shu bilan birga, bolalarning individual rivojlanishi har bir bosqichda kuzatib borilib, maxsus jurnalga qayd etib boriladi va vakolatli organlarga taqdim etiladi. Mazkur ma'lumotlar bazasi asosida bolaning rivojlanish dinamikasi bilan bog'liq statistik tahlillar yuritilib, qaysi dasturlar yoki qanday yondashuvlar samarali ekanligi tahlil qilib boriladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida (Finlandiya, Amerika, Angliya) bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini rivojlantirishda oila va ota-onalarning roliga alohida e'tibor qaralib, ota-onalar uchun maxsus o'qitish dasturlari joriy etilgan, shuningdek bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligi diagnostikasi asosida individual rivojlanish dasturlari amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot doirasida maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga tayyorgarligini diagnostika qilish va rivojlantirish borasidagi quyidagi MDH va respublikamiz olimlarining dasturlarini tahlil etdik:

- "Школа-2100" ta'limiy dasturi - A.A. Leontev va boshq.;
- 3-6 yoshli bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish dasturi - L.G.Peterson, Ye.Ye. Kochemasova, N.P. Xolina;
- "Rivojlanish" (Развитие) - L.A. Venger, O.M. Dyachenko, N.F. Astaskova, N.A. Korotkova, N.Ya. Mixaylenko;
- "Bolalik" (Детство) – V.I.Loginova, T.I.Babaeva, L.M.Gurovich;
- "Iqtidorli bola" (Одараённый ребёнок) - L.A. Venger, O.M. Dyachenko, Ye.L.Agaeva;
- "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasalarining Davlat o'quv dasturi – Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., va boshq.;
- multimedia texnologiyalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish dasturi - X.Yo.Najmiddinova kabilardir.

Mazkur dasturlar mazmunida asosan maktabgacha yoshdagi bolalarni u yoki bu yo'nalishdagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va baholash metodikasi bilan bog'liq ishlanmalar yoritilgan bo'lib, bolalarni har tomonlama rivojlanishi masalasi determinant komponent sifatida tadqiq etilmagan. Shu bois, tadqiqotlarimiz davomida tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratdik.

Dissertatsiyaning **“Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari asosida bolalarni maktab ta’limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobda bolalarini maktab ta’limiga tayyorgarligi mazmuni va indikatorlari, maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, shuningdek, rivojlantiruvchi ta’limiy texnologiyalar vositasida bolalarni maktab ta’limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish metodikasi yoritib berilgan.

Ma’lumki, tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga kompleks tayyorlash aniq maqsadga yo’naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Tadqiqotimiz doirasida maktabgacha yoshdagi, xususan, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta’limiga umumiy tayyorgarligiga qo’yiladigan talablar, umumiy tayyorgarlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik, fiziologik, ijtimoiy aspektlarini o’rganish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, oila va maktabning mazkur jarayondagi imkoniyatlari diagnostikasi xulosalariga tayanib, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta’limiga tayyorgarligi quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi:

I-bosqich. Bilish faoliyatiga yo’nalganlik; ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi; kommunikativ ko’nikmalarning o’zlashtirilishi; “Men” konsepsiyasining anglanishi.

II-bosqich. Shaxsiy-faoliyatli yondashuvning qaror topishi; ijtimoiylashuv, tashabbuskorlik, guruhda ishlash, o’ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchanlik, kommunikativlik; kabi shaxsiy sifatlarning rivojlanishi.

III-bosqich. O’quv (maktab) faoliyatiga bo’lgan qiziqishning shakllanganligi; ijodkorlik; bilish faolligi, ijtimoiy-shaxsiy faollik va shaxsiy o’sish, axloqiy tasavvurlarning shakllanishi, o’z-o’ziga baho berish; topshiriqlarni mustaqil bajarishi; hissiy barqarorlik.


Mazkur jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari funksional faoliyati - bolaning psixofiziologik, ijtimoiy va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya mazmunini individual-differensial yondashuv asosida takomillashtirish, har tomonlama rivojlantirish uchun sharoit yaratish, jarayon sifatini ta’minlash, rivojlanish diagnostikasini amalga oshirish, strategiyalarini belgilashga yo’naltirilishi;

Oila (ota-ona) - ijtimoiy institut sifatida, bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarligi va adaptatsiyasini qo’llab-quvvatlash, ijodiy, axloqiy, ijtimoiy-shaxsiy, intellektual faoliyatini rag’batlantirishi;

Maktab - maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini davom ettirishi, bolalarning mavjud tajribasiga asoslangan holda, boshlang’ich ta’limni to’g’ri tashkil etish, uzluksizlikni ta’minlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai-nazardan, bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarligini shakllantirishda maktab ta’limiga tayyorgarlik mazmuni va uning asosiy indikatorlarining aniqlashtirilganligiga, pedagogik shart-sharoitning o’ziga xosligi va tarbiyalanuvchilarning individualligini hisobga olgan holda, quyidagi tamoyillarga e’tibor qaratish zarur sanaladi: ekotizimlilik-uzviylik; ta’lim mazmunini tabaqalashtirish, individuallashtirish, inklyuzivlik hamda kompetensiyaviy yondashuv kabilardir.

Mazkur ilmiy mulohazalardan kelib chiqib, tadqiqot doirasida pedagogik model ishlab chiqildi va bu boradagi faoliyat mazmuni quyidagicha belgilandi (1 -rasm).



1-rasm. Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayorlash metodikasini takomillashtirish modeli

Tadqiqotlarimiz natijasida ishlab chiqilgan mazkur model, mavjud modellardan farqli ravishda individual-differensial, ekotizim-uzviylik, kompetensiyaviy va transversal yondashuvlarga muvofiq, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining rivojlanish sohalari doirasida maktab ta'limiga tayyorgarligini ta'minlovchi faoliyat turlari bilan bog'liq jihatlarga qaratilsa, tarbiya mazmuni esa xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlar yo'nalganligi, motivlar, ideallarni shakllantirish, ijtimoiy normalarga amal qilish bilan bog'liq o'z faoliyati va hatta-harakatlarini to'g'ri yo'naltira olish kabi sifatlarni shakllantirishga yo'naltirildi.

Fikrimizcha, maktabga tayyorlov guruhi bolalari bilan olib boriladigan mashg'ulotlar mazmuni, shakli va metodlari tarbiyalanuvchilarning maktab ta'limiga tayyorgarliklarini shakllantirishga, ularning ijodiy-tadqiqotchilik va mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi, diagnostik maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan boshqa yosh guruhlaridan ajralib turadi. Shu bois, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining umumiy maktab ta'limiga tayyorgarligini rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va vositalarini to'g'ri tanlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada, rivojlantiruvchi ta'lim bolaga ta'lim jarayonini sub'ekti sifatida qaraydigan pedagogik tizimdir. U bolaning individual imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning rivojlanishiga imkon berishga yo'nalganligi bilan aniq tavsiyalar beruvchi, tarbiyachi imkoniyatlariga tayanuvchi an'anaviy metodikadan farq qiladi.

Tadqiqotlarimiz davomida tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirishda ta'lim uchun universal dizayn (Universal Design for Learning - UDL) strategiyasi modifikatsiyasi asosidagi metodik yondashuv taklif etildi. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar ta'limida mazkur strategiya inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi bilan birga, axborotni taqdim etish, materiallar bilan o'zaro aloqada bo'lish va bilimlarni namoyish etishning turli usullarini taqdim etish asosida bolalarni individual rivojlanish traektoriyasi produktogenligiga xizmat qiladigan pedagogik jarayonni maqsadli loyihalash imkonini beradi. UDLning asosiy tamoyillarini tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish metodikasiga quyidagicha integratsiyalash taklif etildi:

1. Axborotni taqdim etishning har xil usullari: Tarbiyachilar bolalarning hohish va qobiliyatlariga ko'ra o'rganishlariga yordam berish uchun hikoyalar, rasmlar, o'yinlar, rasm chizish va rolli o'yinlar kabi turli xil usul va vositalardan foydalanishlari mumkin.

2. Materiallar bilan o'zaro aloqada bo'lishning turli usullari: maktabga tayyorlov davridagi ta'limda bu bolalarning faol ishtirokini rag'batlantiradigan turli xil o'yin turlari va o'quv mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi, masalan, guruh topshiriqlari, o'quv o'yinlarida ishtirok etish va tarbiyachilar va boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatlar.

3. Bilim va ko'nikmalarni namoyish etishning har xil usullari: Bolalar o'z bilimlarini o'yin ssenariylari, chizmalar, hikoyalar, qo'shiqlar va boshqa ijodiy ifoda shakllari orqali namoyish etishlari mumkin.

Bunda pedagogik jarayonni loyihalash bosqichlari: rivojlanish darajasini aniqlash; zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar kategoriyasini belgilash; bolani

kompleks rivojlanishi va qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlovchi chora-tadbirlarni belgilash; bolalarni kompleks tayyorgarligini shakllanishini qo‘llab-quvvatlovchi metodikalar, differensial va individuallashtirilgan ta‘lim muhitini yaratish; pedagogik jarayon va uning natijalari monitoringi; tarbiyachilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish; oila bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirishdan iborat.

Tadqiqotlarimiz doirasida bolalarni maktab ta‘limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qiluvchi, ta‘lim uchun universal dizayn strategiyasining hamkorlikdagi o‘zaro birgalikdagi faoliyatning barcha bosqichlarini ko‘zda tutadigan rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalari turkumini aniqlashtirdik (2 rasm).



2-rasm. Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish texnologiyalari

Shuningdek, tadqiqotlarimiz doirasida tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta‘limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish metodikasi sifatida portfolio texnologiyalari, loyihaviy ta‘lim, ekspres skrening kabi multimetodlardan keng foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida tayyorlov guruhi bolalarining maktabga kompleks tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalari tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

“Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari va ularning samaradorligi” deb nomlangan uchinchi bobda tajriba-sinov ishlarini tashkil etilishi va metodikasi, natijalarning samaradorligi bilan bog‘liq ma‘lumotlar, tahlillar o‘z aksini topgan.

Belgilangan vazifalarning amaldagi faoliyat talablari bilan qat'iy bog'liqligini ta'minlash maqsadida tajriba-sinov ishlari 2019-2023 yillarda quyidagi bosqichlarda olib borildi:

1. Ta'kidlovchi tajriba bosqichi (2019-2020 yy.). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasidagi Qonun hujjatlari, Prezidentning Farmon va Qarorlari), metodik ta'minot o'rganildi, bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligiga qo'yiladigan Davlat talablari tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun tadqiqot obyektlari va respondentlar tanlab olindi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonlari sifat ko'rsatkichlari aniqlandi, maktab ta'limiga tayyorgarlik mazmuni belgilandi, asosiy ko'rsatkich va mezonlar shakllantirildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning amaldagi holati ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglar hamda tarbiyalanuvchilar bilan olib borilgan suhbat, kuzatish, intervyu, individual rivojlanish xaritalarini o'rganish orqali o'rganildi.

2. Shakllantiruvchi tajriba bosqichi (2021-2022 yy.). Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayorlash metodikasini takomillashtirish modeli va komponentlari, diagnostik dastur ishlab chiqildi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayorlash yo'nalishlari (ijtimoiy-kommunikativ, kognitiv-intelektual, emotsional-irodaviy, MTT, oila va maktab kalloboratsiyasi), ta'lim uchun universal dizayn strategiyasi asosidagi rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari tizimi belgilandi, dissertatsiya g'oyalari asosida tayyorlangan metodik ishlanmalar tajriba-sinovdan o'tkazildi. Shuningdek, ota-onalar uchun seminar-trening dasturi tajribadan o'tkazildi.

3. Yakunlovchi tajriba bosqichi (2022-2023 yy.). Bu bosqichda pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari umumlashtirildi, sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi, Styudent va Pirson metodlari asosida matematik-statistik tahlil qilindi.

Yakuniy natijalariga ko'ra tavsiya etilayotgan kompleks yondashuvlarning samaradorligi, maktabga tayyorlog guruhi bolalarining maktab ta'limiga bo'lgan qiziqishning ortishi, kognitiv jarayonga ijobiy munosabat va motivatsiyaning rivojlanishi aniqlandi. Yakunlovchi natijalarga ko'ra ilmiy xulosalarga kelindi hamda amaliy-metodik tavsiyalar majmui yaratildi.

Tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahri DMTTdan 75 nafar, Surxondaryo viloyati DMTT 92 nafar va Qashqadaryo viloyati DMTT 90 nafar, jami 257 nafar tarbiyalanuvchi respondent sifatida qatnashdi. Tadqiqotning samaradorligini obyektiv baholash maqsadida nazorat guruhi uchun ham respondentlar tasodifiy tanlash yo'li bilan jalb etildi.

Tayorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning eksperimental dasturiga (kuzatish, suhbat, mashg'ulot tahlillari, so'rovnomalar, rivojlanish xaritalari SWOT tahlili, interfaol mashg'ulotlar va boshq.) muvofiq, pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga kompleks tayyorgarligini shakllanganlik darajasi bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

1-jadval

Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga kompleks tayyorgarligini shakllanganligi bo‘yicha tajriba avvalida(T.a.)gi va tajriba so‘ngi (T.s.)dagi ko‘rsatkichlar

Tajriba sinov obyektlari	Tajriba guruhi (132 nafar respondent)						Nazorat guruhi (125 nafar respondent)					
	Yuqori daraja		O‘rta daraja		Past daraja		Yuqori daraja		O‘rta daraja		Past daraja	
	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.
Toshkent shahri DMTT	10	17	11	13	17	8	10	11	11	12	16	14
Surxondaryo viloyati DMTT	11	20	13	17	22	9	12	13	14	15	20	18
Qashqadaryo viloyati DMTT	13	22	15	19	20	7	10	11	12	14	20	17
Jami	34	59	39	49	59	24	32	35	37	41	56	49

Tajriba-sinov ishlarining aniqlovchi va yakunlovchi bosqichlarida o‘tkazilgan qiyosiy tahlillar biz olib borgan tajriba ishlarining natijaliligini hamda samaradorligini isbotladi. Buni biz maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga kompleks tayyorgarligini shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi rivojlanganlik indikatorlarining sifat va son jihatidan dinamik o‘sganligida ko‘ramiz. Jadvalda ma‘lumotlar tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhlaridagi natijalar taqqoslandi (2-jadval).

2-jadval


